



AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH ASOSLARI

Mamayusupova Shahina Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti, 2-kurs talabasi

+998993032770

shahinamamayusupova28@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8133496>

ARTICLE INFO

Received: 29th June 2023

Accepted: 08th July 2023

Online: 09th July 2023

KEY WORDS

Prognoz, moliya, strategiya, YaIM, biznes, tadbirkorlik, ma'muriy, inflyatsiya, inqiroz, islohot.

ABSTRACT

Mamlakat iqtisodiy erkinlikka va taraqqiyotga erishishida xususiy tadbirkorlik hamda biznes faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ularning faoliyati va amalga oshirilishi bevosita matematik modellar orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ro'li va ahamiyati hamda ekonometrik tahlil usullari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari kichik biznes va tadbirkorlikning yillar kesimidagi ulushi ko'rsatkich va sohalaridagi raqamlar berilgan.

Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti uning iqtisodiy mustaqilligi, xalqning farovon turmush darajasi hamda mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Respublikamizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish hamda arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora- tadbirlar va qabul qilinaayotgan ma'muriy hujjatlar natijasida kichik biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tutgan o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortmoqda. Xususan, 2021-yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 45%ni tashkil qilgan¹ va kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari ulushi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 95,9 %, qurilishda 73,6 %, xizmatlar sohasida 41,1 % va sanoatda 21,5 % ni tashkil etdi².

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qarori. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2021-y., 07/21/5020/0191-son

² O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI 2022- YILDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH statistikasi



qilmoqda. Sababi ushbu tizimni yo'lga qo'yish orqali mamlakat iqtisodiy farovonlikka erishishligini ta'minlash mumkin.

Keyingi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning o'zgarishlarga tez moslashuvchan sohasi sifatida ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirish, xizmat ko'rsatishning yangi va zamonaviy turlarini kengaytirish, eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotga keng tadbiriq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt harajatlarning kamayganligi, ro'yxatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida, ularning tashqi savdo faoliyati ko'rsatkichlarida ham ijobiy tendensiyalar yuz bermoqda. Import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi eksport hajmida kichik biznesning hissasini oshirish imkonini bermoqda. Respublikamiz eksportining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yilda 10,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 26,5 foizga oshgan³.

Globalashuv davrida jahonda ro'y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta'sirida dunyo bo'yicha 56 million kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O'zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, yangi ish o'rinlarini yaratishning o'ziga xos mexanizmlarining tarkib topganligi hamda uning bir qator yo'nalishlar bo'yicha izchil amal qilib kelayotganidir. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini maksimal darajada oshirmoqda.

O'zbekiston respublikasi statistika agentligi tahlillariga qaraydigan bo'lsak, 2022- yilda 90,2 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etildi. Ularning eng ko'p soni savdo (38,1 %), sanoat (18,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (13,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,4 %), qurilish (5,3 %), tashish va saqlash (3,7 %), axborot va aloqa (2,9 %) sohalarida tashkil etildi. Va bundan tashqari, 2022- yil yakunlari bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari tomonidan 429 292,7 mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotdagi yalpi qo'shilgan qiymatning 51,8 % i yaratilgan. Shundan 46,6 % i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 11,0 % i sanoat, 9,5 % i qurilish tarmoqlari va 32,9 % i xizmatlar sohasiga to'g'ri keldi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakat iqtisodiy erkinlikka va taraqqiyotga erishishida xususiy tadbirkorlik hamda biznes faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo ularning faoliyati va amalga oshirilishi bevosita matematik modellar asosida amalga oshiriladi. Model va modellastirish deyilganda olimlar ta'kidlaganidek, model bu shunday moddiy yoki xayolan tasavvur qilinadigan ob'ektki, qaysiki tadqiqot jarayonida haqiqiy ob'ektning o'rnini shunday bosadiki, uni bevosita o'rganish haqiqiy ob'ekt haqida yangi bilimlar beradi deya aytiladi. Modellarni qurishda tadqiq qilinayotgan hodisani belgilovchi muhim omillar aniqlanadi va qo'yilgan masalani yechish uchun muhim bo'lmagan qismlar chiqarib

³ AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O'RNI Po'latov Xudoyberdi O'ktamovich SamISI mustaqil tadqiqotchisi



tashlanadi. Ilmiy izlanishlarda modellashtirish qadimgi zamonlardanoq qo'llanila boshlandi va asta sekin ilmiy bilimlarning qurilish va arxitektura, astranomiya, fizika, ximiya, bilologiya va pixoyat, ijtimoiy fanlar kabi tabora yangi sohalarini qamray ola boshladi. Birinchi matematik modellar F.Kene, A.Smit (klassikmakroiqtisodiy model), D.Rikardo (xalqaro savdo modeli) tomonidan ishiatilgan. XX asr zamonaviy fanning amalda barcha sohalarida modellashtirish usuliga katta muvaffaqiyatlar va obro'-e'tibor keltirdi. Va hozirgi kunda ham deyarli barcha korxona va firmalar moliyaviy hamda iqtisodiy tahlillari matematik modellar va modellashtirish orqali amalga oshirlmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi:⁴

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023Q1
YaIM	64,6	66,8	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	51,8	43,7
Sanoat	40,6	45,3	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	25,9	28,4
Qurilish	66,7	66,9	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	71,6	76,6
Bandlik	77,9	78,2	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	74,4	-
Eksport	27,0	26,0	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	29,5	25,3
Import	44,5	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	49,4	48,4

Yuqoridagi statistik jadvalda ko'rsatilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM miqdoridagi ulushi 202015-yilga nisbatan kamroq ko'rsatkichda ya'ni 2015-yilda 64,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-choragida esa 43,7 foizda aniqlangan. Qurilish sohasida esa anchagina o'sish kuzatilgan va 2023-yil 1-choragiga kelib 76,6 foizni qurulish sohasi egallamoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish hamda aholi bandligi va daromadlarini oshirishdagi muhim omil hisoblanadi. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo'llab quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning qator farmon va qarorlari qabul qilindi. Shuningdek bugungi kunda amalda sinalmoqda. Jumladan, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish yo'lida bir qancha imkoniyatlar va yengilliklar berilmoqda. Maqsad esa mamlakat taraqqiyotini ulkan cho'qqilarga olib chiqishdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 martdagi PQ-5020-sonli qarori. Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2021-y., 07/21/5020/0191-son
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI 2022- YILDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH statistikasi
3. AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O'RNI Po'latov Xudoyberdi O'ktamovich SamISI mustaqil tadqiqotchisi
4. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi tahlili

⁴ O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi tahlili